

2021-yilning aprel oyidan boshlab, har shanba kuni Toshkent - Moskva - Toshkent yo'nalishi bo'yicha muntazam aviaqatnovlar qayta joriy etiladi.

Mazkur yo'nalish bo'yicha uchishni boshlash uchun Rossiyaga kelishdan avval 3 kalendar kunidan oshmagan holda PSR-test (rus yoki ingliz tilida) o'tkazish talab qilinadi. Mazkur reysga O'zbekiston Respublikasining barcha fuqarolari va Rossiya Hukumatining 16.03.2020-yildan 635-p farmoyishi asosida Rossiyaga kirishga cheklov qo'yilmagan O'zbekistonda doimiy yashash huquqiga ega chet el fuqarolari kiritilishi mumkin.

Tushunmovchiliklarning oldini olish uchun chiptalarni tezlashtirib xarid qilish xizmatlarini taklif qiluvchi shubhali shaxslarga murojaat etmasligingizni so'raymiz. Chiptada ko'rsatilgan va siz to'lagan narxni taqqoslashingizni qattiq tavsiya etamiz. Aviachipta aviakompaniyaning rasmiy saytida xarid qilinsa, 3% chegirma amal qiladi!

| | | |
|------------------------------|-----------------------------|------------------------------------|
| Yo'nalish | Qatnov bajariladigan kunlar | |
| Toshkent - Moskva - Toshkent | Shanba | Chipta sotib olish |



[Download PDF](#)